


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar dekabr oylarida chakana savdo aylanmasi **9130,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,8 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1172,5** mlrd. so'mni (**36,8 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7958,0** mlrd. so'mni (**21,7 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **4597,2** mlrd. so'mni (**10,5 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9130,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,8 %** ga oshdi.




Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **87,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **12,8 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Baxmal tumani **21,6 %** ulush bilan **1974,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **84,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **7958,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **21,7 %** ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,2 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (99,0 %), Zafarobod (98,9 %), Yangiobod (98,2 %), G'allaorol (97,9 %), Forish (98,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2020-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan , foizda	Yirik korxonalar mlrd. d. so'm	2020-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	9130,6	108,8	1172,6	63,2	7958,0	121,8
Jizzax sh.	1974,1	106,5	259,1	39,4	1715,0	143,4
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	197,7	111,2	1,9	16,6	195,8	117,9
Baxmal	2034,0	98,7	804,3	82,1	1229,8	113,8
G'allaorol	827,6	109,5	17,4	138,5	810,2	109,0
Sharof Rashidov	1119,4	114,5	1,9	13,1	1117,5	116,1
Do'stlik	326,8	129,3	8,9	43,8	317,9	136,8
Zomin	1192,3	112,6	50,4	120,1	1142,0	112,3
Zarbdor	316,4	125,6	5,8	17,6	310,6	141,8
Mirzacho'l	232,3	117,1	4,7	25,7	227,6	126,4
Zafarobod	168,3	130,7	2,0	9,5	166,3	154,5
Paxtakor	363,3	115,1	9,6	24,3	353,7	128,0
Forish	293,3	103,2	5,1	168,2	288,2	102,5
Yangiobod	84,9	111,8	1,5	73,2	83,4	112,9

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **36,8 %** ga kamaydi va **1172,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7958,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **21,7 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8%), Arnasoy (99,0 %), Zafarobod (98,8 %), Yangiobod (98,2 %), G'allaorol (97,8 %), Forish (98,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (13,2 %), Paxtakor (2,7 %), Baxmal (39,6 %) va Do'stlik (2,8 %) tumanlarida kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021-yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6398,9** ming so'm (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **6,5** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**10799,4** ming so'm), Baxmal (**12610,3** ming so'm), Zomin (**7051,0** ming so'm) va Sharof Rashidov (**4881,7** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	6398,9	106,5
Jizzax sh.	10799,4	104,3
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	4215,8	109,6
Baxmal	12610,3	96,4
G'allaorol	4675,6	107,2
Sharof Rashidov	4881,7	111,5
Do'stlik	4870,5	127,2
Zomin	7051,0	110,0
Zarbdor	3543,0	122,5
Mirzacho'l	4375,6	115,1
Zafarobod	3300,8	128,4
Paxtakor	4742,9	112,7
Forish	3100,8	101,6
Yangiobod	2948,0	109,9


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1435,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **14,9 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **508,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,8 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **927,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **27,0%** ga oshdi) .


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



16,1 mlrd.
so'm

Tuzlamalar



216,2
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



22,6
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

68,4
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



20,2
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

33,2
mlrd. so'm



Tuxum

60,3
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

15,2
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

3,8
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

14,8
mlrd. so'm



Ziravorlar

38,1
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2021-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **508,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (216,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2021-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **927,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **657,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **248,1** mlrd. so'mni, otlar **17,5** mlrd. so'mni, parrandalar **4,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **152,4** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,6 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**




	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	152420,6	112,6	147280	112,8
Jizzax sh.	79629,59	140,3	78493,6	140,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	962,8	102,9	803,4	107,5
Baxmal	2788,0	99,0	2140,3	93,7
G‘allaorol	8672,9	64,5	8230,8	63,3
Sh. Rashidov	25323,8	109,3	24511,6	109,0
Do‘stlik	4880,0	99,8	4664,1	100,7
Zomin	10031,2	91,2	9337,2	89,2
Zarbdor	4309,5	75,7	4119,3	75,3
Mirzacho‘l	5570,9	192,0	5391,0	200,5
Zafarobod	1232,9	44,5	1083,9	41,8
Paxtakor	4619,3	76,3	4398,2	75,9
Forish	3515,4	93,2	3289,2	94,0
Yangiobod	884,4	77,2	817,6	76,6

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2856,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **13,6** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **566,5** mlrd. so'mni (**11,3** % ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2289,7** mlrd. so'mni (**14,2** % ga oshdi) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**110,0 %**), Baxmal (**119,9%**) va Do'stlik (**231,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	2856,2	113,6	566,5	111,3	2289,7	114,2
Jizzax sh.	1547,0	110,0	260,0	108,0	1287,0	110,5
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	5,2	38,1	0,1	0,9	5,1	114,7
Baxmal	225,2	119,9	173,0	116,5	52,3	132,4
G'allaorol	79,2	120,9	0,4	44,6	78,8	121,9
Sh. Rashidov	179,1	103,7	0,1	1,2	179,0	111,5
Do'stlik	235,8	231,3	99,8	806,8	136,0	151,9
Zomin	295,9	143,8	0,1	1,9	295,8	147,4
Zarbdor	37,6	66,7	0,0	0,2	37,5	124,3
Mirzacho'l	7,4	22,6	0,2	1,1	7,2	45,7
Zafarobod	20,0	46,9	0,3	1,5	19,8	82,3
Paxtakor	59,0	110,5	31,9	178,9	27,2	76,3
Forish	150,6	91,2	0,6	117,8	150,1	91,1
Yangiobod	14,1	136,6	0,1	25,4	14,0	140,1

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **2289,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **14,2** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **80,2** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**100** %), Yangiobod (**99,4** %), G'allaorol (**99,5** %), Forish (**99,6** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**23,2** %), Do'stlik (**57,7**%) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26